



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, I-QISM

OPEN ACCESS

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

Google
Scholar

Academic
Resource
Index
ResearchBib



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI VA UNING BARQARORLIK KO'RSATKICHLARI	18
Nazarov G'ayrat Xayrullayevich	
YUKLARNI TASHISHDA ZARURIY TRANSPORT XUJJATLARI.....	22
Ne'matov Husniddin Alijon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATI HUDUDLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY IMTIYOZ VA PREFERENSIYALARNI SAMARALI QO'LLASH YO'NALISHLARI	27
Otamurodova Dildora Abdukrimovna	
GLOBAL BEQARORLIK SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOTNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MODELLARI	32
Saidnazarova Odinabonu Saidolim qizi	
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ИССЛЕДОВАНИЙ В ОБЛАСТИ УЧЕТА И АУДИТА ФИНАНСОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ.....	37
Пулатова Мадина Бейсеновна	
Табаев Азамат Зарипбаевич	
MAJBURIYATMI YOKI MAJBURIY RISK? MOLIYAVIY MAJBURIYATLAR KONSEPTUAL ASOSLARINING IQTISODIY TABIATI VA ZAMONAVIY TALQINLARI	42
Palvanov Xusniddin Bekimmatovich	
ПРИНЦИПЫ И МЕТОДЫ УЧЕТА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ В СИСТЕМЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ.....	47
Пу Кебин	
TRANSPORT XIZMATLARI SIFATINI BARQARORLIK NUQTAYI NAZARIDAN O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	51
Xodjaniyazov Elbek Sardorovich	
VILOYAT SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI KO'P OMILLI EMPIRIK MODELLAR ASOSIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH (Qashqadaryo viloyati misolida)	57
Avazova Nafisa Namazovna	
SANOAT KORXONALARI SHOVQINI VA ATMOSFERA CHIQINDILARINING TURAR-JOY HUDUDLARI EKOLOGIYASIGA TA'SIRINI KAMAYTIRISH CHORALARI	61
Saparova Shohida Abduvaliyevna	
SANOAT SHOVQINI VA ATMOSFERA IFLOSLANISHINING SHAHAR TURAR JOY HUDUDLARI VA EKOLOGIYASIGA TASIRINI O'RGANISH	65
Shaxyusupova Nilufar Erkin qizi	
BARQAROR SHAHAR RIVOJLANISHIDA SANOAT OQOVA SUVLARINI BIOLOGIK TOZALASH TEXNOLOGIYALARINING ROLI	69
Tursunova Aziza Asrorovna	
SHAHAR EKOLOGIK MUHITIGA SANOAT KORXONALARINING TA'SIRINI BAHOLASH.....	75
Imomnazarov Farrux Saibjabbor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AYOLLAR TADBIRKORLIGI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA IQTISODIY KO'RSATKICHLAR TAHLILI.....	78
Xusanova Zulfiya Raxmatullayevna	
KORXONALARDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION BOSHQARUV MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	87
No'monjonova Muazzam Mahbubjon qizi	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	93
Nasimov Ravshanjon Azimovich	



KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	100
Kazakova Zulayho Salaxiddinovna	
THE IMPACT OF DIGITAL LITERACY ON LABOR PRODUCTIVITY IN UZBEKISTAN'S SERVICE SECTOR: A REGRESSION ANALYSIS.....	106
Ismoilov Elyorjon Makhamadali Ugli	
Urinov Bobur Nasilloevich	
EKOLOGIK NIZOLARNI HAL ETISHDA SUD AMALIYOTINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	112
Gapparov Sarvar Xolmurodovich	
ASOSIY FAOLIYAT XARAJATLARINING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI	116
Djumayeva Guzal Axtamovna	
Yadgarova Madina Xasan qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA BANK SOHASIDAGI KIBERJINOYATLAR: TAHLIL, TAHDID VA MUHOFAZA MEKANIZMLARI	120
Xudayarova Xurshida Abdunazarovna	
ПРОБЕЛЫ В МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ СОВМЕСТНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ ТРАНСГРАНИЧНЫХ РЕК ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (НА ПРИМЕРЕ БАССЕЙНА АРАЛЬСКОГО МОРЯ).....	126
Тиллахуджаев Аббосхон	
Дилфуза Шакирова	
Мухамедалиева Сайёра	
Ойбек Камилов	
ALOQA XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O'RNI VA BAHOLASH USULLARI	139
Xazratov Abror Panjiyevich	
STRATEGIC HUMAN RESOURCE MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION: CHALLENGES AND OPPORTUNITIES.....	146
Sultonboyeva Munira Bahodirovna	
Sultanova Kamila Muktorali Kizi	
TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI.....	154
Toshimov Azizbek Hakimovich	
Nomozov G'ofur Abdusalomovich	
DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING ASOSIY YO'NALISHLARI: STRUKTURAVIY TRANSFORMATSIYA VA SAMARADORLIKNI BAHOLASH	158
Izbosarov Bobur Baxriddinovich	
Umirov Sherzod Baxriddinovich	
INTEGRATION OF TRADE MARKETING AND E-COMMERCE: COMBINING ONLINE AND OFFLINE SALES CHANNELS	162
Mamatkulova Shoirja Jalolovna	
AHOLIGA SAVDO XIZMATLARI KO'RSATISH SOHASINI RAQAMLASHTIRISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	168
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
Jurayev Suxrobjon Saloxiddin o'g'li	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В МАРКЕТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	177
Маматкулова Шоира Джалоловна	
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ЛОГИСТИКИ В РАЗВИТИИ КОММЕРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТОРГОВЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	184
Маматкулова Шоира Джалоловна	



SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING BANK SOHASIDA INTEGRATSIYASI XUSUSIYATLARI VA TAHLILI	191
Jurayeva Sevara Zakirovna	
INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHNING MEHNAT BOZORIGA TA'SIRLARINI BAHOLASH MASALALARI	197
Tursunboyev Umarbek	
ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ ПРИ ОЦЕНКЕ НЕДВИЖИМОГО ИМУЩЕСТВА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА	202
Мирджалилова Дилдора Шухратовна	
Мансурова Сайёра Бахтиёрвна	
БАНК ТИЗИМИ БАРҚАРОРГИНИ ТАЪМИНЛАШ ВОСИТАЛАРИ ВА УСУЛЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	213
Ж.О.Баходиров	
O'ZBEKISTON AGRAR SUG'URTA BOZORIDA ESG TAMOIYILLARINI JORIY ETISHNING XAVFLARNI BOSHQARISH VA BARQARORLIKNI OSHIRISHDAGI O'RNI.....	219
Kodirova Samira Kamol qizi	
PERSONALISED OFFERS IN DIRECT MARKETING: IMPACT ON SALES AND CUSTOMER LOYALTY.....	225
Mamatkulova Shoira Djalolovna	
TURIZM INFRASTRUKTURASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI XIZMATLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI VA AQLLI TURIZM KONSEPSIYASI.....	231
Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li	
HUDUDLARDA MADANIY TURIZM XIZMATLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USLUBIY ASOSLARI	237
Shohruzбек Ruziyev	
MARKETING MIX FOR SERVICE COMPANIES: ADAPTATION OF CLASSIC MODELS TO SERVICE MARKETING	244
Mamatkulova Shoira Djalolovna	
15-16 YOSHLI TAEKVONDOCHILARNING KOMPLEKS TAYYORGARLIGI DINAMIKASI.....	250
Tashmatov Sherzod Rixsibayevich	
TIJORAT BANKLARIDA DAROMAD VA XARAJATLAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	256
Toshimov Azizbek Hakimovich	
Mamanov Isroil Islom o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA DAROMAD VA XARAJATLARNING IQTISODIY MOHIYATI.....	260
Toshimov Azizbek Hakimovich	
Ergashev Ilyos To'raqul o'g'li	
DELAYING MOTHERHOOD: BEHAVIORAL AND SOCIO-DEMOGRAPHIC DETERMINANTS OF EARLY CHILDBEARING IN TAJIKISTAN	264
Dr Muhammad Bilal	
Gulyorabonu Usmonova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION MEKANIZMLARI	275
Xasanova Xamida Xaydaraliyevna	
ELEKTRON TIJORATNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	281
Nazarova Shahodat Ravshan qizi	
THE ROLE OF DIGITAL MARKETING IN INDUSTRIAL COMPANIES	286
Musoyeva Rukhshona Javlon qizi	
APPLICATION OF EXTREME MODELS IN ASSESSING THE ECONOMIC POTENTIAL OF AN ENTERPRISE.....	291
Musayeva Shoira Azimovna	



O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA SOLIQ VA BUXGALTERIYA ISLOHOTLARINING KORKONALAR FAOLIYATIGA TA'SIRI.....	298
Isayev Jahongir Muzaffarovich Jumaboyeva Zuhra Umidbek qizi	
YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLAR TOMONIDAN XODIMLAR DAROMADIDAN SOLIQNI TO'LOV MANBAIDA USHLAB QOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	302
Sabirov Mirza Qilichbayevich	
AGRAR MAHSULOTLARNI QAYTA ISHLASH SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	309
Sheraliyev Axror Sodiqovich Ne'matov Javohir Zoxidjon o'g'li	
BIZNES INKUBATORLARNING TASHKILiy-HUQUQIY ASOSLARI	314
Narzullayev Shodiyor Eshpulatovich	
GANDBOL BILAN SHUG'ULLANUVCHI CHIZIQ O'YINCHISINI O'YIN JARAYONIDAGI TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIGINI MAXSUS MASHQLAR ORQALI OSHIRISH SAMARADORLIGI.....	323
R.O. Obloberdiyeva	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI TO'LOV QOBILIYATI VA MOLIYAVIY BARQARORLIGINING IQTISODIY MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI	329
Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich Ishbekova Lobar Yunusxonovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING TO'LOV QOBILIYATLARINI OSHIRISH MEXANIZMLARI VA UNING NAZARIY JIHATLARI	335
Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich Ishbekova Lobar Yunusxonovna	
MUSOBAQA DAVRIDA MALAKALI MARKAZ O'YINCHILARINING HUJUM TEXNIKASINI TAKOMILLASHTIRISH USLUBIYATI	340
R.O. Obloberdiyeva	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SOLIQ NIZOLARINI SUDGACHA TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH	348
Solihova Xumora Xasan qizi	
IQTISODIYOTDA "DATA SCIENCE"NING O'RNI VA AHAMIYATI	354
Inatullayeva Intizor Jamshid qizi	
ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОСТИ БАНКОВСКОГО СЕКТОРА В УСЛОВИЯХ ВНЕДРЕНИЯ ЦИФРОВЫХ И ФИНТЕХ-РЕШЕНИЙ	357
Абдуллаева Шахло Рустамовна	
MAXSUS IQTISODIY ZONALAR SAMARADORLIGINI BELGILOVCHI ASOSIY KATEGORIYALAR.....	365
Arslanov U.U.	



MAXSUS IQTISODIY ZONALAR SAMARADORLIGINI BELGILOVCHI ASOSIY KATEGORIYALAR

Arslanov U.U.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Tel.: +998 99 477 54 06

Annotatsiya. Ushbu maqolada maxsus iqtisodiy zonalarining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni, ular faoliyati samaradorligini baholashning nazariy-metodologik jihatlarini hamda samaradorlikka ta'sir etuvchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida maxsus iqtisodiy zonalaridagi investitsiya faolligi, ishlab chiqarish hajmi, eksport salohiyati, yangi ish o'rinlari yaratish darajasi va mehnat munosabatlari rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari o'rganilgan. Shuningdek, hududlar kesimida maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini reyting baholash usullari hamda ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: maxsus iqtisodiy zona, hudud, iqtisodiyot tarmog'i, samaradorlik, sanoat, ishlab chiqarish, eksport salohiyati, investitsiya faolligi, mehnat munosabatlari.

Аннотация. В данной статье проанализированы роль специальных экономических зон в развитии национальной экономики, теоретико-методологические аспекты оценки эффективности их деятельности, а также основные экономические показатели, влияющие на результативность функционирования данных зон. В ходе исследования были изучены инвестиционная активность в специальных экономических зонах, объёмы производства, экспортный потенциал, уровень создания новых рабочих мест и показатели развития трудовых отношений. Кроме того, рассмотрены методы рейтинговой оценки деятельности специальных экономических зон в региональном разрезе, а также механизмы повышения их экономической эффективности.

Ключевые слова: специальная экономическая зона, регион, отрасль экономики, эффективность, промышленность, производство, экспортный потенциал, инвестиционная активность, трудовые отношения.

Abstract. This article analyzes the role of special economic zones in the development of the national economy, the theoretical and methodological aspects of evaluating their performance efficiency, as well as the main economic indicators influencing the effectiveness of their operation. The study examines investment activity within special economic zones, production volumes, export potential, the level of new job creation, and indicators reflecting the development of labor relations. In addition, methods for rating the performance of special economic zones across regions and mechanisms for enhancing their economic efficiency are considered. The findings of the study are significant for improving the management system of special economic zones, increasing their competitiveness, and ensuring sustainable economic growth.

Keywords: special economic zone, region, economic sector, efficiency, industry, production, export potential, investment activity, labor relations.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida globallashtirish jarayonlarining chuqurlashuvi, xalqaro raqobatning kuchayishi hamda investitsiyalar uchun qulay muhit yaratish zarurati maxsus iqtisodiy zonalarining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda maxsus iqtisodiy zonalar sanoatni modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni jalb etish va hududlarni kompleks rivojlantirishning muhim iqtisodiy mexanizmlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini faoliyatining samaradorligi davlat, investorlar va hududlar manfaatlarining o'zaro uyg'unligi hamda mutanosib ta'minlanishiga bevosita bog'liq. Investorlar uchun investitsiyalarning rentabelligi va daromadliligi muhim ahamiyat kasb etsa, davlat uchun byudjet tushumlarining ortishi, iqtisodiy o'sish sur'atlarining jadallashtirish hamda eksport hajmlarining kengayishi ustuvor hisoblanadi. Hududlar nuqtayi



nazaridan esa yangi ish o'rinlarining yaratilishi, aholi bandligining oshishi va mahalliy byudjet daromadlarining ko'payishi muhim natijalar sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur manfaatlarining o'zaro uyg'unlashuvi maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati samaradorligini oshirish, ularning barqaror rivojlanishini ta'minlash hamda milliy iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasini kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini rivojlantirishning hududiy afzalliklari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan. Mazkur tadqiqotlarda maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati asosan xorijiy investitsiyalar oqimini jalb etish, yalpi ichki mahsulot (YalM) hajmining o'sishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, aholi bandligining oshishi hamda ish haqi darajasining ortishi orqali hududlar iqtisodiyotiga ko'rsatayotgan ta'siri nuqtayi nazaridan tavsiflangan [1, 2, 3, 4].

Bizning fikrimizcha, maxsus iqtisodiy zonalar iqtisodiy islohotlarni sinovdan o'tkazish, ularning natijadorligini baholash hamda samarali boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish imkonini beruvchi muhim tajriba maydoni vazifasini bajaradi.

Hududlarda maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati samaradorligini baholash maqsadida ularning monitoringi, reytingini shakllantirish va reyting baholash mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi [5]. Ushbu jarayon maxsus iqtisodiy zonalar boshqaruvi va rivojlanishining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Ayrim mualliflar o'z tadqiqotlarida maxsus iqtisodiy zonalar tarkibidagi korxonalar, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar samaradorligini aniqlashning turli yondashuvlari hamda usullarini taklif etganlar. Shu bilan birga, milliy amaliyotda maxsus iqtisodiy zonalar samaradorligini kompleks baholashga qaratilgan metodik yondashuvlar shakllanib bormoqda. Mazkur holat hududlar kesimida maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini chuqur tahlil qilish va baholashda ushbu tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan uslubiy yondashuvdan foydalanish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati samaradorligini baholashning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga qaratilgan ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik-guruhlash, iqtisodiy-statistik tahlil, dinamik qatorlar tahlili hamda reyting baholash usullari qo'llanildi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar tashkil etdi.

Tahlil jarayonida 2019–2024-yillar davomida maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari, jumladan, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar, eksport hajmi, ko'rsatilgan xizmatlar, qurilish ishlari hamda bandlik ko'rsatkichlari o'rganildi. Ushbu ko'rsatkichlarning hududlar kesimidagi o'zgarishlari qiyosiy tahlil asosida baholandi.

Maxsus iqtisodiy zonalar samaradorligini aniqlashda investitsion, ishlab chiqarish, eksport, moliyaviy, ijtimoiy, innovatsion va infratuzilmaviy samaradorlik kategoriyalaridan foydalanildi. Har bir kategoriya bo'yicha tegishli iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi shakllantirilib, ularning hududlar va tarmoqlar kesimidagi natijalari tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash maqsadida statistik ma'lumotlar dinamik va tarkibiy tahlil usullari asosida qayta ishlanib, maxsus iqtisodiy zonalarining hududiy rivojlanish, investitsiyalarni jalb etish, eksport salohiyatini oshirish va yangi ish o'rinlari yaratishdagi o'rni baholandi. Olingan natijalar asosida maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy xulosalar va takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, respublikada maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini turli iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha tashkil etilgan bo'lib, ularning faoliyat yo'nalishlari sanoat, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi, turizm, transport-logistika va boshqa sohalarni qamrab oladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini hududlarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2019-yilda 7 877,5 mlrd so'mni, 2023-yilda 37 769,2 mlrd so'mni hamda 2024-yilda 44 182,5 mlrd so'mni tashkil etgan. Xususan, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich



2023-yilga nisbatan 17 foizga oshgan. Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarishining eng yuqori o'sish sur'atlari Jizzax viloyatida 29,1 foizni, Navoiy viloyatida 13,2 foizni va Toshkent viloyatida 2,4 foizni tashkil etgan.

So'nggi yillarda maxsus zonalarining hududiy rivojlanishiga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmi izchil ortib bormoqda. Jumladan, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Samarqand va Toshkent viloyatlaridagi maxsus iqtisodiy hamda sanoat zonalariga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi nisbatan yuqori bo'lgan. Mazkur hududlar hissasiga to'g'ri kelgan investitsiyalar jami investitsiyalar hajmining 21,5 foizini tashkil etadi.

Shunday qilib, 2024-yilda maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchisi bo'lgan korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari (ishlar va xizmatlar) ulushi respublika umumiy hajmining qariyb 5 foizini tashkil etgan. Shuningdek, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar ulushi 3,3 foizni, ko'rsatilgan xizmatlar ulushi 0,2 foizni hamda qurilish ishlari ulushi 0,1 foizni tashkil etgan.

Quyidagi statistik ma'lumotlarda 2019–2024-yillarda respublika maxsus iqtisodiy zonalarida faoliyat yuritayotgan korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining o'sish dinamikasi aks ettirilgan. Tahlil qilinayotgan davrda ushbu mahsulotlar hajmi 5,6 baravar oshib, 2024-yil yakuniga ko'ra 44 182,5 mlrd so'mga yetgan. Mazkur natija mahalliy xomashyoni qayta ishlash darajasini bosqichma-bosqich chuqurlashtirish, tayyor mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish hamda yuqori qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirgan.

Hududlardagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining asosiy ulushi avtotransport vositalari, tirkamalar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish hissasiga to'g'ri kelib, jami mahsulotlarning 28,7 foizini tashkil etgan. Shuningdek, metallurgiya sanoati mahsulotlari 16,5 foizni, oziq-ovqat mahsulotlari 14,1 foizni, kauchuk va plastmassa buyumlari 8,5 foizni, to'qimachilik mahsulotlari 6,1 foizni, metall bo'lmagan mineral mahsulotlar 5,4 foizni hamda kimyo sanoati mahsulotlari 3,6 foizni tashkil etgan.

Respublika hududlarida joylashgan maxsus iqtisodiy zonalar tarkibidagi ishlab chiqarish korxonalari zamonaviy yuqori texnologiyali uskunalar bilan jihozlangan bo'lib, ular jahon bozorida raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Natijada, 2024-yilda maxsus iqtisodiy zonalar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan xorijiy bozorlarga 16 020,8 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari, tovarlar va xizmatlar eksport qilingan.

2019–2024-yillarda maxsus iqtisodiy zonalar tomonidan ko'rsatilgan eksport xizmatlari hajmida barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilgani alohida e'tiborga loyiqdir. Xususan, 2024-yilda maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchisi bo'lgan korxonalar tomonidan 2 022,5 mlrd so'mlik eksport xizmatlari ko'rsatilgan bo'lsa, 2019-yilda ushbu ko'rsatkich 87,7 mlrd so'mni tashkil etgan. Mazkur natijalar maxsus iqtisodiy zonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatdagi o'rni va ahamiyati tobora ortib borayotganligini ko'rsatadi.

maxsus iqtisodiy zonalar samaradorligini baholashning asosiy kategoriyalari quyidagilardan iborat.

1. Investitsion samaradorlik kategoriyasi

Investitsion samaradorlik maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Chunki maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri xorijiy va mahalliy investitsiyalarni faol jalb etishdan iboratdir. Ushbu kategoriya quyidagi ko'rsatkichlar orqali baholanadi:

- jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi;
- mahalliy investitsiyalar miqdori;
- investitsiyalarning yillik o'sish sur'ati;
- investitsion loyihalar soni;
- amalga oshirilgan investitsiyalarning tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi.

Investitsion samaradorlik darajasi yuqori bo'lgan zonalarda ishlab chiqarish faolligi ortadi, hududning iqtisodiy jozibadorligi kuchayadi hamda investitsion muhit yanada yaxshilanadi. Bu esa mamlakatning xalqaro investitsion reytinglarda munosib o'rin egallashiga xizmat qiladi.

2. Ishlab chiqarish samaradorligi kategoriyasi

Ishlab chiqarish samaradorligi maxsus iqtisodiy zonalarining iqtisodiy natijadorligini ifodalovchi muhim kategoriyalardan biri hisoblanadi. U ishlab chiqarish hajmi, mahsulot sifati va resurslardan foydalanish samaradorligi bilan tavsiflanadi. Mazkur kategoriyaning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilar hisoblanadi:

- sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi;
- qo'shimcha qiymat yaratish darajasi;
- mehnat unumdorligi;
- asosiy fondlardan foydalanish samaradorligi;
- ishlab chiqarish quvvatlarining bandlik darajasi.

Mazkur kategoriya zonalarining iqtisodiy faolligi va ishlab chiqarish salohiyati qay darajada yuqori ekanligini aks ettiradi. Ishlab chiqarish samaradorligining oshishi mamlakat sanoatining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.



3. Eksport samaradorligi kategoriyasi

Eksport salohiyati maxsus iqtisodiy zonalarining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki aksariyat maxsus iqtisodiy zonalar eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan. Eksport samaradorligi quyidagi ko'rsatkichlar asosida baholanadi:

- eksport hajmi;
- eksport mahsulotlari ulushi;
- tashqi bozorlar geografiyasi;
- eksportdan tushgan valyuta tushumlari;
- tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ulushi.

Eksport samaradorligining ortishi mamlakat tashqi savdo balansini mustahkamlash, eksport geografiyasini kengaytirish hamda milliy valyuta barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

4. Moliyaviy samaradorlik kategoriyasi

Moliyaviy samaradorlik maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining iqtisodiy natijalarini baholash imkonini beruvchi muhim kategoriya hisoblanadi. Ushbu kategoriya quyidagi ko'rsatkichlarni qamrab oladi:

- korxonalar foydasi;
- rentabellik darajasi;
- xarajatlar va daromadlar nisbati;
- byudjetga tushumlar hajmi;
- soliq imtiyozlarining iqtisodiy samarasi.

Moliyaviy samaradorlik davlat tomonidan yaratilgan iqtisodiy rag'batlar va imtiyozlarning natijadorligini baholash imkonini beradi.

5. Ijtimoiy samaradorlik kategoriyasi

Maxsus iqtisodiy zonalar aholi bandligini ta'minlash, daromadlarini oshirish va turmush darajasini yuksaltirishda muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy samaradorlik quyidagi ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi:

- yaratilgan ish o'rinlari soni;
- aholi bandlik darajasi;
- ish haqi miqdorining o'sishi;
- mehnat sharoitlarining yaxshilanishi;
- kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimining rivojlanganlik darajasi.

Mazkur kategoriya hududiy ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.

6. Innovatsion samaradorlik kategoriyasi

Innovatsion rivojlanish zamonaviy iqtisodiyotning ustuvor talablaridan biri hisoblanadi. Shu sababli maxsus iqtisodiy zonalar samaradorligini baholashda innovatsion ko'rsatkichlar alohida ahamiyat kasb etadi. Asosiy ko'rsatkichlar quyidagilar hisoblanadi:

- yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushi;
- innovatsion loyihalar soni;
- ilmiy-tadqiqot ishlariga ajratilgan mablag'lar hajmi;
- yangi texnologiyalarni joriy etish darajasi;
- raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'lami.

Innovatsion samaradorlik mamlakat iqtisodiyotining texnologik modernizatsiyasini jadallashtirish va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

7. Infratuzilmaviy samaradorlik kategoriyasi

Infratuzilma maxsus iqtisodiy zonalarining samarali faoliyat yuritishida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Rivojlangan muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, transport infratuzilmasi va logistika tizimlari investitsiyalarni jalb qilish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarining hududlar iqtisodiyotiga qo'shayotgan hissasini tahlil qilish natijalari ularning hududlar kesimida turlicha natijadorlikka ega ekanligini ko'rsatadi. Biroq barcha hududlarda maxsus iqtisodiy zonalar iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda (1-jadval).

2024-yilda ko'rsatkichlarning eng yuqori ulushi quyidagi hududlarda faoliyat yuritayotgan zonalar hissasiga to'g'ri kelgan: Jizzax viloyati (sanoat mahsulotlari – 31,9 foiz, ko'rsatilgan xizmatlar hajmi – 31,9 foiz, qurilish ishlari hajmi – 29,2 foiz), Toshkent viloyati (sanoat mahsulotlari – 23,2 foiz, ko'rsatilgan xizmatlar hajmi – 52,6 foiz), Navoiy viloyati (sanoat mahsulotlari – 13,0 foiz), Qashqadaryo viloyati (qurilish ishlari hajmi – 29,1 foiz), Buxoro viloyati (asosiy kapitalga investitsiyalar – 39,6 foiz), Samarqand viloyati (asosiy kapitalga investitsiyalar – 16,7 foiz) hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi (qurilish ishlari hajmi – 32,7 foiz) (1-jadval).



1-jadval

Hududlar kesimida maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati ko'rsatkichlari
ulushining o'zgarishi, % (tarmoqlar kesimida)¹

Hududlar	Sanoat ishlab chiqarish hajmi		Ko'rsatilgan xizmatlar hajmi		Tugallangan qurilish ishlari hajmi		Asosiy kapitalga investitsiyalar	
	2021	2024	2021	2024	2021	2024	2021	2024
O'zbekiston Respublikasi	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,4	0,3	–	0,1	–	32,7	–	4,4
Andijon	0,1	1,0	3,1	0,4	–	0,5	2,2	4,2
Buxoro	3,4	2,7	6,1	3,2	2,3	1,8	0,3	39,6
Jizzax	12,0	31,9	–	31,9	–	29,2	1,4	6,3
Qashqadaryo	–	0,03	35,7	0,4	–	29,1	–	0,1
Navoiy	20,3	13,0	0,8	4,6	91,7	6,6	15,6	11,2
Namangan	1,5	2,7	0,1	0,9	–	–	1,8	3,8
Samarqand	12,5	10,7	1,8	2,2	–	–	6,6	16,7
Surxondaryo	0,1	0,1	0,6	2,3	–	–	1,1	1,8
Sirdaryo	6,7	6,4	51,9	0,8	–	–	21,2	2,9
Toshkent	29,9	23,2	–	52,6	3,6	0,01	42,8	7,6
Farg'ona	12,0	7,4	–	0,02	2,4	–	3,4	1,3
Xorazm	1,0	0,6	–	0,7	–	–	3,6	0,2

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2021-yilda respublika hududlaridagi maxsus iqtisodiy zonalar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan ayrim iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish ishlari amalga oshirilmagan. Biroq Buxoro, Navoiy, Toshkent va Farg'ona viloyatlari bundan mustasno bo'lib, mazkur hududlarda ko'rsatkichlar nisbatan yuqori shakllangan. Shuningdek, qator hududlarda qurilish ishlari bo'yicha ko'rsatkichlar qayd etilmagan. Ammo 2024-yildan boshlab hududlardagi ko'plab maxsus iqtisodiy zonalarda qurilish ishlari faollashib, yangi ishlab chiqarish va infratuzilma obyektlarini barpo etish jarayonlari jadallashgan. Shunga o'xshash ijobiy o'zgarishlar boshqa tarmoq ko'rsatkichlarida ham kuzatilmoqda.

Maxsus iqtisodiy zonalar tarkibidagi korxonalarda 2024-yilda 50,5 ming nafarga yaqin xodim faoliyat yuritgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan 27,6 ming nafarga ko'pdir. Shu bilan birga, maxsus iqtisodiy zonalarda yaratilgan ish o'rinlari sonining barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Jumladan, 2019–2024-yillarda ish o'rinlari soni 29,4 ming taga ortib, jami 53,1 ming o'ringa yetgan. Mazkur ko'rsatkichlar zonalarining bandlikni ta'minlashdagi muhim o'rnini yaqqol namoyon etadi.

Shuningdek, maxsus iqtisodiy zonalar tarkibidagi korxonalarda yangi ish o'rinlarini yaratish salohiyati ham yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Xususan, 2024-yilda korxonalarda 18 mingta yangi ish o'rne yaratilgan. Tahlil qilinayotgan davr mobaynida ushbu ko'rsatkich 2020-yildagi 10,7 ming o'rindan 2022-yildagi 19,6 ming o'ringacha yetgan bo'lib, mehnat bozorida barqaror ijobiy dinamikani aks ettiradi.

Mehnat munosabatlari bilan bog'liq statistik ma'lumotlar tahlili respublika hududlaridagi maxsus iqtisodiy zonalarda mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi izchil oshib borayotganligini ko'rsatadi. Xususan, Navoiy viloyatida 2021–2024-yillar davomida xodimlar tarkibida kuzatilgan o'zgarishlar ishlab chiqarish jarayonlarining modernizatsiya qilinishi, investitsiya faolligining kengayishi va mehnat unumdorligining ortishi bilan tavsiflanadi. Bu esa hududda mavjud mehnat resurslaridan samarali foydalanish hamda ishlab chiqarish samaradorligini yanada oshirish uchun qulay sharoitlar shakllanayotganligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, respublikaning aksariyat hududlarida faoliyat yuritayotgan maxsus iqtisodiy zonalarda xodimlar soni ulushining ortishi bo'yicha ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda. Bunday holat mavjud va yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni hamda ularning hududlar kesimidagi ulushi ko'rsatkichlarida ham o'z aksini topgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, maxsus iqtisodiy zonalar ko'rsatkichlarining milliy iqtisodiyotdagi ulushi izchil o'sib bormoqda va kelgusida yanada kengayish salohiyatiga ega, ularning mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga qo'shayotgan hissassi sezilarli darajada ortib bormoqda. Xususan, birinchi maxsus iqtisodiy zona tashkil etilganidan buyon o'tgan 17 yil davomida respublikada 53,1 mingta ish o'rne yaratilgan, 50,5 ming nafar fuqaro doimiy ish bilan ta'minlangan hamda ko'plab mahalliy korxonalar eksport faoliyatini yo'lga qo'yishga muvaffaq bo'lgan.

¹ **Manba:** Jadval Davlat statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida eksportga yo'naltirilgan maxsus iqtisodiy zonalarini rivojlantirish bo'yicha yangi bosqichga erishildi. Kelgusida ushbu ijobiy tendensiyalarni yanada mustahkamlash maqsadida manfaatdor vazirlik va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda boshqa mas'ul tashkilotlar tomonidan maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni izchil davom ettirish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Yangi O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur zonalar xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirish, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarni kengaytirish, ilg'or texnologiyalarni jalb etish va innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish uchun qulay iqtisodiy muhit yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, o'tgan 17 yil davomida maxsus iqtisodiy zonalar respublika hududlarining sanoat salohiyatini rivojlantirish va investitsiyalarni jalb etishning samarali mexanizmlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda mamlakatimizning turli hududlarida 25 ta maxsus iqtisodiy zona faoliyat yuritib, ularda 1 071 ta korxona ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatini amalga oshirmoqda hamda 53 mingdan ortiq fuqaro doimiy ish bilan ta'minlangan.

Tadqiqot natijalari respublika hududlarida maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni yanada takomillashtirish muhimligini ko'rsatdi. Chunki maxsus iqtisodiy zonalar hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, investitsion jozibadorlikni kuchaytirish hamda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu hududlarda tadbirkorlik faoliyati uchun alohida huquqiy rejim, jumladan, soliq, bojxona, ma'muriy va fuqarolik-huquqiy imtiyozlar hamda kafolatlarning mavjudligi investitsiya faolligining o'rtishiga xizmat qilmoqda.

Respublika maxsus iqtisodiy zonalarini faoliyatini tahlil qilish ularning milliy iqtisodiyot rivojlanishiga qo'shayotgan hisssasi izchil o'tib borayotganligini ko'rsatdi. Xususan, 2024-yilda maxsus iqtisodiy zonalar tarkibidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari (ishlar va xizmatlar) respublika umumiy hajmining qariyb 5 foizini tashkil etdi. Shuningdek, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar ulushi 3,3 foizni, ko'rsatilgan xizmatlar ulushi 0,2 foizni hamda qurilish ishlari ulushi 0,1 foizni tashkil etdi. Mazkur ko'rsatkichlar maxsus iqtisodiy zonalarining hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati tobora o'tib borayotganligini tasdiqlaydi.

2019–2024-yillar davomida maxsus iqtisodiy zonalar tarkibidagi korxonalar faoliyati natijalari ularning ishlab chiqarish-xo'jalik faolligi sezilarli darajada oshganligini ko'rsatdi. Jumladan, ushbu davrda sanoat mahsulotlari (ishlar va xizmatlar) hajmi 5,6 baravar, qurilish ishlari hajmi 5,4 baravar, ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 27 baravardan ortiq, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 5 baravar hamda xizmatlar eksporti hajmi 2 baravar oshdi. Bu esa maxsus iqtisodiy zonalarining mamlakat iqtisodiyotida tobora muhim o'rin egallab borayotganligini anglatadi.

Hududlar kesimidagi tahlillar maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining natijadorligi hududlarning iqtisodiy salohiyati va ixtisoslashuv xususiyatlariga muvofiq shakllanmoqda, ularning iqtisodiy rivojlanishga qo'shayotgan hisssasi muntazam o'tib borayotganligini ko'rsatdi. Ayniqsa, Jizzax, Toshkent, Navoiy, Buxoro va Samarqand viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida yuqori natijalar qayd etilgan bo'lib, bu hududlarda sanoat ishlab chiqarishi, xizmatlar ko'rsatish, qurilish ishlari va investitsiya faolligi bo'yicha sezilarli o'sish sur'atlari kuzatildi.

Umuman olganda, respublika hududlarida maxsus iqtisodiy zonalarini rivojlantirish istiqbollari ijobiy baholanadi. Davlat tomonidan olib borilayotgan izchil qo'llab-quvvatlash siyosati, investitsion muhitning takomillashuvi va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarning kengayib borishi maxsus iqtisodiy zonalarining iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi muhim mexanizmlardan biriga aylanmoqda. Kelgusida ularning faoliyatini yanada takomillashtirish, hududiy mutanosib rivojlanishni ta'minlash va innovatsion loyihalarni keng joriy etish orqali mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga qo'shadigan hissasini yanada oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Cai, J., Xin, K. va boshqalar. (2021). "A Dynamic Panel Data Approach and HCW's Method: Assessing the Effect of China (Shanghai) Free Trade Zone on Local GDP". Journal of Management Science and Engineering, 6(3), 249–267. DOI: <https://doi.org/10.1016/j.jmse.2021.06.004>.

2. Widiyanto, Y.W., Yudhisthira, M.H. (2021). "Special Economic Zones and Regional Economic Growth: Empirical Evidence of Sei Mangkei SEZ". Indonesian Journal of State Budget and Finance, 3(2). DOI: <https://doi.org/10.33827/akurasi2021.vol3.iss2.art130>.



3. Alexianu, M., Saab, M., Teachout, M., Khandelwal, A. (2019). Doing Special Economic Zones Right: A Policy Framework. International Growth Centre. November 2019.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. 2023-yil 11-sentabr, PF–158-son. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2023–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. 2022-yil 28-dekabr, PQ–459-son. <https://lex.uz/uz/docs/-6329448>
6. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. 2019–2024-yillarga oid rasmiy statistik ma'lumotlar va ko'rsatkichlar.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning investitsiyalarni jalb etish va savdoni rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqi. 2025-yil 15-yanvar. Murojaat manzili: <https://uz.kursiv.media/2025-01-16/v-uzbekistane-nachnut-sozdavat-sez-orientirovannye-tolko-na-eksport>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. 2025-yil 4-mart, PF–41-son. <https://lex.uz/docs/-7420262>
9. "O razvitii svobodnyx ekonomicheskix zon v stranax YeAES" [Elektron resurs]. Murojaat manzili: <https://berlek-nkp.com> (kirish sanasi: 2025-yil 27-avgust).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>